3 BOB

MAKTAB FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH

3.1. Dastur mazmuni

3.2. Dasturni rasmiylashtirish

3.1. DASTUR MAZMUNI

Shunday qilib, maktab faoliyatining chuqurlashtirilgan diagnostikasi yakunlandi va endi maktabning boshqaruv (yoki loyiha) jamoasi oldida o‘zgarishlar dasturini ishlab chiqish vazifasi turibdi. Avvalo, ***maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi*** (yoki ***o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilash dasturi***) nima ekanligini hamda uning maktabni rivojlantirish dasturidan qanday farq qilishini ko‘rib chiqamiz.

Maktabni rivojlantirish dasturi — bu maqsadli dasturlarning bir turi bo‘lib, o‘zining funksiyalari, xususiyatlari va tuzilishi bilan ajralib turadi. U maqsadli-dasturiy yondashuvning asosiy tamoyillari va usullariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Maktabni rivojlantirish dasturi maktab oldida turgan rivojlanish vazifalarini hal etishga qaratilgan innovatsion faoliyat modeli hisoblanadi. U, odatda, maktabning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy strategik hujjat bo‘lib, unda maktabning missiyasi, maqsadi, strategik vazifalari, ularni amalga oshirish uchun zarur resurslar hamda belgilangan maqsadlarga erishish darajasini baholovchi maqsadli ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

Rivojlantirish dasturining asosiy xususiyatlari uning kompleksligi (keng qamrovliligi) va innovatsionligidir.

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi ham maktabning uzoq muddatli istiqbolda sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishini nazarda tutadi. Biroq, uning asosiy maqsadi ***o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashdan iborat***.

Shu maqsadda uchta ustuvor yo‘nalishda ta’lim jarayoni (darslarni tashkil etish va o‘qitish sifati), boshqaruv hamda ta’lim muhitini takomillashtirish bo‘yicha o‘zgarishlar rejalashtiriladi.

Ushbu dasturlar o‘rtasidagi ikkinchi muhim farq shundaki, resurslar cheklangan sharoitda maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi, avvalo, maktabning ichki resurslariga tayanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur dasturni maktabni rivojlantirish dasturining tarkibiy loyihalaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

U moddiy-texnik baza, o‘quvchilar kontingenti, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoiti hamda boshqa omillardan qat’i nazar, maktab faoliyati samaradorligini ta’minlaydigan ichki imkoniyatlarni safarbar etish va ulardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi pedagogik jamoaning o‘quvchilarning ta’lim natijalari hamda kelgusidagi hayotiy imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan

dolzarb muammolarni hal etish bo‘yicha maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta’minlaydi.

Rivojlantirish dasturi kabi, mazkur dastur ham hal etilishi lozim bo‘lgan muammo yoki muammolar majmuasini (eng avvalo, o‘quvchilarning ta’lim natijalari bilan bog‘liq muammolarni), ularni hal etish strategiyasini (ta’lim jarayoni va o‘qitish sifatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni) hamda barcha o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladigan maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi samarali maktab modeliga asoslanadi.

Shu bois, unda asosan quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

– boshqaruv sifatiga;

– o‘qitish (dars berish) sifatiga;

– o‘quvchilar va o‘qituvchilarning natijalariga (o‘qish va o‘qitishga);

– ta’lim va maktab muhiti sifatiga.

Dasturni ishlab chiqishda har bir maktabning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki-to‘rtta ustuvor yo‘nalishni tanlash hamda ularning har biri bo‘yicha maqsad va vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq. Ustuvor yo‘nalishlar va maqsadlar o‘tkazilgan tahlillar natijalariga asoslanib belgilanadi. Ular o‘quvchilarning ta’lim natijalarida aniqlangan muammolar hamda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun takomillashtirilishi zarur bo‘lgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi lozim.

Mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar qatoriga quyidagilar kiradi:

– fan natijalari (o‘qish, til, matematika);

– natijalarni baholash va hisobga olish;

– ota-onalar bilan hamkorlik;

– kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash;

– maktab muhiti (bino, hovli);

– o‘quvchilarni individual qo‘llab-quvvatlash.

Keyinchalik, tanlab olingan har bir ustuvor yo‘nalishni algoritmga muvofiq tahlil qilish zarur.

Ustuvor yo‘nalishlarni tanlashda quyidagi savollarga javob berish zarur:

– *Aynan nimani o‘zgartirmoqchimiz va qanday muammolarni hal qilmoqchimiz?*

– *Biz muammoni to‘g‘ri tanlaganimizni va ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri belgilaganimizni qanday ma’lumotlar / dalillar tasdiqlaydi?*

– Ushbu muammoni hal qilish (bu ustuvor yo‘nalishni ajratish) nima uchun va qanchalik muhim? U nimaga ta’sir qiladi va qanday natijalar hamda samaralarga olib keladi?

– Aynan shu muammoni hal qilishga e’tibor qaratishingizdan o‘quvchilarga foyda bo‘ladimi? Qanday foyda? Buni qanday bilib olamiz?



3-rasm. Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini ishlab chiqish algoritmi

Dasturni ishlab chiqishni boshlashdan oldin, pedagogik jamoaga maktabdagi jarayonlar tahlili asosida ustuvor yo‘nalishlarning umumiy xaritasini tayyorlash tavsiya etiladi. Ushbu ustuvorliklarning 2 tadan 4 tagachasi kelgusi dasturning asosi qilib olinishi mumkin. Ustuvor yo‘nalishlarning ko‘p bo‘lishi resurslarning tarqalib ketishiga olib keladi, kam bo‘lishi esa, o‘z navbatida, belgilangan maqsadlarga erishishga imkon bermaydi. Samarali maktab modeliga muvofiq, ustuvorliklar qatoriga quyidagi choralar kiritilishi shart: pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va o‘zaro hamkorligi, o‘quvchilar uchun darsdan hamda maktabdan tashqari faoliyatning har qanday shakllarini rivojlantirish, ota-onalar va tashqi muhit bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish hamda sifatli ta’limni tashkil etish uchun undan zarur resurslarni izlash.

Barcha ajratib ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarni majburiylik, tezkorlik hamda boshqa ustuvor yo‘nalishlar bilan kuchli bog‘liqlik darajasi bo‘yicha reytinglash lozim (12-jadval).

12-jadval

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi uchun ustuvor yo‘nalishlar xaritasi

Ustuvor yo‘nalishlar tavsifi	*Ustuvor yo‘nalishlar*		
	Fan va fanlararo ta’lim natijalari	*Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun maxsus (korreksion) ta’lim*	*Turli yosh guruhlaridagi o‘quvchilarni o‘qitishning samarali texnologiyalari*
Majburiy	Davlat standarti talablari	Davlat standarti talablari	
Tezkor			Natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi
Boshqa ustuvor yo‘nalishlar bilan kuchli bog‘liqligi	Natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qolgan barcha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishga yordam beradi		Qolgan barcha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishga yordam beradi

Keyingi bosqichda batafsil ishlab chiqish uchun boshqa ustuvor yo‘nalishlar bilan eng ko‘p bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarni tanlash maqsadga muvofiq. Chunki bunday ustuvor yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘zgarishlar boshqa yo‘nalishlarda ham ijobiy o‘zgarishlarga turtki beradi.

Buning uchun tanlab olingan har bir ustuvor yo‘nalishni quyidagi algoritm asosida tahlil qilish tavsiya etiladi:

📌 ustuvorliklar xaritasini qayta ko‘rib chiqish hamda tanlangan ustuvor yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sirini tahlil qilish;

📌 tanlangan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, maqsadlarni belgilash va ularni aniq vazifalarga ajratish.

Umuman olganda, maqsad va vazifalarni shakllantirish, ayniqsa ustuvor yo‘nalishlar kesimida ularni aniq belgilash, o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilash dasturini ishlab chiqishdagi eng muhim va mas’uliyatli bosqichlardan biridir.

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi doirasida belgilangan maqsad SMART modeli talablariga muvofiq bo‘lishi, ya’ni quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

– **aniq (konkret)** barcha uchun tushunarli;

– **o‘lchanadigan** hisoblab bo‘ladigan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan;

– **erishish mumkin bo‘lgan** xarajatlar va/yoki resurslarning mavjudligi bo‘yicha belgilangan;

– **reallikka asoslangan** (relevant) mavjud resurslar doirasida;

– **vaqt bo‘yicha belgilangan** aniq qo‘yilgan muddatlarga ega.

Shundan so‘ng maqsadlar ularni amalga oshirish ketma-ketligi yoki qamrab oladigan faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, aniq vazifalarga ajratiladi. Har bir vazifa bo‘yicha uning ijrosini ta’minlaydigan aniq chora-tadbirlar belgilanadi. Masalan, o‘qitish metodikasini (masalan, korreksion sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatish metodikasini) joriy etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur: ushbu yo‘nalish bo‘yicha samarali metodikalarni tanlash, o‘qituvchilarning malakasini oshirishni tashkil etish, maktab ichida mazkur metodika yuzasidan tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish hamda ayrim sinflarda o‘quv jarayoniga ushbu metodikaga asoslangan mashq va topshiriqlarni bosqichma-bosqich joriy etish.

Dastur maqsadli blokining muhim tarkibiy qismi muvaffaqiyat mezonlarini belgilash hisoblanadi. Mezonlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

– **sifat ko‘rsatkichlari** bu erishilgan natijalari ekspert xulosasi yoki ishtirokchilar o‘rtasidagi so‘rovnoma asosida baholanadigan mezonlar. Masalan, yangi baholash tizimi joriy etilishining samaradorligini o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uni muhokama qilayotganligiga qarab aniqlash mumkin. Jamoadagi psixologik muhitning o‘zgarishini esa ushbu maktab o‘qituvchilari va rahbarlarining fikrlarini umumlashtirgan holda baholash mumkin. Shuningdek, ushbu mezonlarni ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali ham baholash imkoniyati mavjud. Masalan, psixolog ushbu ustuvor yo‘nalish bo‘yicha vazifa bajarilishidan oldin va keyin maktabdagi muhitni baholashga qaratilgan so‘rovnoma o‘tkazishi mumkin;

– **miqdor ko‘rsatkichlari** bu sonlar, ulushlar, birliklar va hokazolarda baholash mumkin bo‘lgan mezonlar. Masalan, yangi o‘qitish metodikalarini joriy etish mezoni sifatida malaka oshirgan pedagoglar soni yoki ulushi, ushbu metodika asosida dars o‘tilayotgan sinflar soni yoki ulushi olinishi mumkin. Bu o‘rinda aniq qiymatlarni belgilash muhimdir. Savodxonlikni rivojlantirishning yangi metodikasini joriy etish samaradorligi mezoni sifatida yarim yilda fan bo‘yicha o‘rtacha ballning 0,5 ga oshishi belgilanishi mumkin (ball va muddat maktab tomonidan belgilanadi). Bunda mezonlarni faqat «bajarildi/bajarilmadi» tamoyili asosida emas, balki vazifaning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda tanlagan ma’qul: seminar yakunlariga ko‘ra, muayyan sonli (yoki ulushdagi va h.k.) pedagoglar yangi metodika bilan tanishdilar, muayyan sonlisi (yoki ulushi va h.k.) uni dars o‘tish jarayoniga joriy etdi.

Mezonlarni belgilash uchun asosiy savollar:

– *Vazifamizni amalga oshirish va maqsadimizga erishishning aniq natijasi nimadan iborat?*

– *Kerakli natijaga erishganimizni qanday tushunamiz?*

Keyingi bosqichda maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha har bir ustuvor yo‘nalish kesimida batafsil reja tuziladi, unda muddatlar va mas’ul ijrochilar albatta ko‘rsatiladi (13-jadval). Rejalashtirilayotgan natija mezonning aniq qiymati sifatida tushuniladi. Bajarish muddatlari imkon qadar aniq belgilanadi. Mas’ul etib faqat direktor yoki direktor o‘rinbosarlari emas emas, balki malaka oshirayotgan o‘qituvchilar jamoalari ham tayinlanadi.

13-jadval

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha batafsil reja

Ustuvor yo‘nalish	Maqsad	Vazifalar	Rejalashtirila-yotgan natija	Bajarish muddatlari	Mas’ullar
1	1	1			
		2			
		3			
2	2	1			
		2			
3	3	1			
		2			

Har bir bosqichda ustuvor yo‘nalishlar, vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar, muddatlar va resurslarning o‘zaro uyg‘unligini muntazam tahlil qilib borish zarur. Bu maktabning boshqaruv tizimi, metodik ishlarni tashkil etish hamda faoliyatning boshqa yo‘nalishlarini takomillashtirish zaruratini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Shuni unutmaslik kerakki, maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi alohida mavjud bo‘ladigan mustaqil hujjat emas, balki maktabni rivojlantirish dasturining ajralmas va eng muhim tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, mazkur dasturni amalga oshirish jarayonida maktabning asosiy ta’lim dasturi yoki boshqa ichki (lokal) hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarurati ham yuzaga kelishi mumkin.

Ustuvor yo‘nalishlar xaritasi va uni amalga oshirish rejasini ishlab chiqishda mavjud resurslarni har tomonlama baholash zarur. Buning uchun maktab, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmini belgilash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv quyidagi masalalarni aniqlashtirish imkonini beradi:

– maktab mustaqil ravishda nimalar qila olishini;

– tuman/shahar darajasida unga qanday yordam berish mumkinligini;

– viloyat darajasida qanday ko‘mak ko‘rsatilishini.

Masalan, matematika fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish uchun ustoz–shogird tizimi asosida tajribali mentorni jalb etish zarur bo‘lishi mumkin. Buning uchun tuman/shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi ko‘magida boshqa maktab bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Yoki hududiy va respublika monitoringlari natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan hamda individual ma’lumotlardan foydalanish uchun Pedagogik mahorat markazining metodik ko‘magini olish zarur bo‘lishi mumkin (bunday bo‘limni ishlab chiqish namunasi 14-jadvalda keltirilgan).

14-jadval

Tuman (shahar) va viloyat darajasidagi resurslarni hisobga olgan holda maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha namunaviy batafsil reja

Resurs	*1-YIL*		*2-YIL*		*3-YIL*	
	Birinchi yarim yillik	*Ikkinchi yarim yillik*	*Birinchi yarim yillik*	*Ikkinchi yarim yillik*	*Birinchi yarim yillik*	*Ikkinchi yarim yillik*
1-ustuvor yo‘nalish: Fan va fanlararo ta’lim natijalari (o‘qish)						
Maqsad – boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining o‘qish sifati va o‘qish savodxonligini hamda asosiy bosqich o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini oshirish						
Maktab	Boshlang‘ich maktabda o‘qishni o‘rgatishning samarali metodikalarini aniqlash	Pedagoglarni o‘qishni o‘rgatish metodikalariga o‘qitishni tashkil etish	Asosiy maktab o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini oshirish metodikalarini aniqlash	Pedagoglarni o‘qish kompetensiyasini oshirish metodikalariga o‘qitishni tashkil etish		
Tuman/ shahar bo‘limi	Ta’limni rivojlantirish instituti tomonidan pedagog-lar uchun “Turli strategiyalarga ega o‘qishni o‘rgatishning samarali metodikalari” o‘quv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishga ariza rasmiylashtirish	O‘quv seminarlarini tashkil etish	Logopedlar, psixologlar, pedagoglar va metodistlar ishtirokida “O‘qishni o‘rgatish natijalarini qanday yaxshilash mumkin” mavzusida davra suhbati		Tajriba almashish bo‘yicha seminarlar tashkil etish	
Viloyat (pedagoglar-ning malaka-sini oshirish markazi)	O‘qishni o‘rgatish metodikalarini tanlashda metodik va konsultativ yordam ko‘rsatish	Pedagoglarni o‘qishning samarali metodikalariga o‘qitishni tashkil etish	O‘qish kompetensiyasini oshirish metodikalarini tanlashda metodik va konsultativ yordam ko‘rsatish	Pedagoglarni o‘qish kompetensiyasini oshirishning samarali metodikalariga o‘qitish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish		

3.2. DASTURNI RASMIYLASHTIRISH

Maqsadlar, vazifalar, mezonlar, muddatlar va mas'ullar belgilangach, dasturni hujjat sifatida rasmiylashtirishga kirishiladi. Dastur quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Titul varag'i.

2. Dastur pasporti. Ushbu bo'limning hajmi ikki sahifadan oshmasligi tavsiya etiladi. Unda dasturning asosiy g'oyalari imkon qadar lo'nda va aniq bayon etilishi lozim (rasmiylashtirish namunasi 15-jadvalda keltirilgan).

15-jadval

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi pasportining namunaviy shakli

Dasturning nomi	
Maktab missiyasi	
Ishlab chiqish uchun asos, maktab uchun dolzarbligi	
Asosiy ishlab chiquvchilar	
Ustuvor yo'nalishlar	
Amalga oshirishdan kutilayotgan yakuniy natijalar	
Amalga oshirish muddatlari va bosqichlari	
Mas'ul shaxslar, kontaktlar	

3. Tahliliy bo'lim. Maktabdagi asosiy jarayonlar boshlang'ich monitoringi natijalarining tavsifi.

4. Maqsadli bo'lim. Maqsad va vazifalar (o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash dasturi uchun ustuvor yo'nalishlar xaritasi (12-jadvalga qarang) hamda maqsad va vazifalarning o'zaro nisbati jadvali (13-jadvalga qarang)).

5. Mazmuniy bo'lim. Har bir ustuvor yo'nalishni amalga oshirishning batafsil rejasi (o'quv yillari kesimida).

6. Baholash bo'limi. Dasturni amalga oshirishdan kutilayotgan (aniq) natijalar; dastur ijrosining monitoringi rejasi; rahbarlik va nazoratni amalga oshirish tartibi.

Yana davomida maktabning samarali ish rejimiga o'tish dasturining har bir bo'limini yozish bo'yicha aniq tavsiyalar keltiriladi.

Tahliliy bo‘lim

Matn tushunarli, ko‘rgazmali va mazmunan boy bo‘lishi lozim. Undagi har bir fikr dalillar va ishonchli ma’lumotlar bilan asoslangan bo‘lishi zarur.

Dalillashning eng muhim elementi ilgari surilgan fikr va uni tasdiqlovchi dalillardir. Yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan hollarda umumiy va asossiz mulohazalardan, raqamlarni shunchaki sanab o‘tishdan hamda ortiqcha jadvallar keltirishdan qochish tavsiya etiladi. Zarur hollarda jadvallar o‘rniga grafik va diagrammalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Hajmi katta bo‘lgan jadvallarni ilovalarda keltirish tavsiya etiladi.

Tahliliy bo‘lim dastur doirasida amalga oshiriladigan ustuvor yo‘nalishlarni belgilash bilan yakunlanadi.

Maqsadli bo‘lim

Dasturning tanlangan ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan tushuntirish xati hisoblanib, o‘z ichiga maqsad, vazifalar va kutilayotgan natijalarni oladi. Maqsadli bo‘lim umuman dasturning kutilayotgan natijasini (maktabning uch yildan keyingi shakllangan qiyofasini) hamda ushbu vaqt ichida ko‘zlangan qiyofaga erishishga imkon beradigan tanlangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish natijalarini shakllantirishga xizmat qiladi (rasmiylashtirish namunasini 16-jadvalda ko‘ring).

Mazmuniy bo‘lim

Mazmuniy bo‘limda har bir ustuvor yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning muddatlari va mas’ullari aniq ko‘rsatilgan batafsil reja keltiriladi.

Rejani amalga oshirish jarayonida har bir rejalashtirilgan faoliyat yoki tadbirning qanday natijalar berayotganini muntazam tahlil qilib borish muhimdir. Shu maqsadda erishilgan natijalarni jamoa bilan birgalikda muhokama qilish, ularni baholash hamda zarur hollarda (kutilgan natijalarga erishilmagan bo‘lsa) rejaga o‘z vaqtida tegishli o‘zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi. Buning uchun reja doirasida monitoring, tahlil va natijalarni muhokama qilishga qaratilgan tadbirlarni ham nazarda tutish lozim.

Baholash bo‘limi

Mazkur bo‘limda maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturining amalga oshirilishini monitoring qilishga doir yondashuvlar yoritiladi. Aksariyat ta’lim tashkilotlarida ichki monitoring tizimi mavjud. Mavjud tajriba va amaliyotlarni saqlab qolgan holda, maktabda tizimli o‘zgarishlarni ta’minlashga xizmat qiladigan monitoring tizimini takomillashtirish uchun dastur ijrosini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Quyida bunday monitoring tizimini ishlab chiqishda asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan mezon va ko‘rsatkichlar keltirilgan (17-jadval).

16-jadval

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturining maqsadli bo‘limi namunasi

Maqsadlar / vazifalar	Tavsif	Muvaffaqiyat mezonlari
1-ustuvor yo‘nalish: Fan va fanlararo ta’lim natijalari (o‘qish)		
1-maqsad	Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining o‘qish sifati va o‘qish savodxonligini hamda asosiy bosqich o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasini oshirish	O‘quvchilarda ta’limning keyingi bosqichlaridagi o‘quv dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi shakllantirilgan. O‘qish savodxonligining rivojlanishi natijasida umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim natijalari yaxshilanadi.
1-vazifa	Pedagoglarni o‘qishni o‘rgatish va o‘qish kompetensiyasini oshirishning samarali metodikalariga o‘qitish	Yangi metodikalarni o‘rganish istagini bildirganlar ulushi. O‘qishni o‘rgatish va o‘qish kompetensiyasini oshirishning yangi metodikalari bo‘yicha malaka oshirgan pedagoglar ulushi. Darslarda va darsdan tashqari faoliyatda yangi metodikalarni qo‘llayotgan pedagoglar ulushi.
2-vazifa	O‘quvchilar bilan o‘qishni o‘rgatish va o‘qish kompetensiyasini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish	Yakka tartibdagi yordamga muhtoj bolalar sonining kamayishi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida o‘qish texnikasining shaxsiy ko‘rsatkichlari yaxshilanishi. Asosiy bo‘g‘in o‘quvchilarining o‘qish kompetensiyasi oshishi. O‘quvchilarning o‘qish faolligi o‘sishi. Darsda qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanish. O‘qilganlarni muhokama qilish (vaqti-vaqtida bo‘ladigan muhokamadan muntazam muhokamaga, pedagog tomonidan maxsus tashkil etilganidan o‘quvchi tashabbusi bilan boshlangan muhokamaga o‘tish).

17-jadval

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish natijalarini baholash mezonlarini tanlash

Normativ-huquqiy ta’minot dastur ijrosi	Ko‘rsatkichlar (dasturni amalga oshirish yillari bo‘yicha dinamikada)
Normativ-huquqiy ta’minot dastur ijrosi	Normativ-huquqiy bazaning mavjudligi: buyruqlar, nizomlar, shartnomalar, ichki (lokal) hujjatlar har bir maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar. Tashkilot normativ-huquqiy hujjatlarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligi
Ta’lim sifati	Bilim sifati, %. O‘zlashtirish (o‘qitilganlik) darajasi, %. O‘quvchilar salomatligi holati, %. O‘quvchilarni qo‘shimcha ta’limning barcha turlari, darsdan tashqari va sinfdan tashqari tadbirlar hamda yakka tartibdagi mashg‘ulotlar bilan qamrab olish darajasi. 10-sinfda o‘qishni davom ettirayotgan o‘quvchilar ulushi. O‘zlashtira olmayotgan (yomon o‘qiydigan) o‘quvchilar soni
Pedagogik va rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalari	Pedagoglarning maktab hayotiga oid masalalarni hal etishdagi ishtirok darajasi (dinamikada). Pedagogik va rahbar xodimlarning malaka darajasi oshishi (dinamikada). Pedagoglarni kasbiy hamkorlikning turli shakllari bilan qamrab olish darajasi
Tashqi hamjamiyat bilan ishlash	Ijtimoiy sheriklar bilan erishilgan kelishuvlar, ta’lim va darsdan tashqari faoliyat uchun tashqi resurslardan foydalanish
Maktab madaniyati va qadriyatlar	Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan qoniqish darajasi, talablar va qadriyatlar birligi (so‘rovnoma, intervyu)

Keltirilgan ro‘yxatni kengaytirish yoki, aksincha, undagi hamma mezon va ko‘rsatkichlarni ham hisobga olmaslik mumkin. Shuningdek, dasturni amalga oshirish natijadorligi ko‘rsatkichlari ulushlar, foizlar va boshqa dinamik ma’lumotlarda o‘lchanishi kerakligiga e’tibor qaratamiz. Sifat ko‘rsatkichlarini kuzatish uchun shkalaning har bir bosqichiga sifat tavsifini bergan holda shkaladan (1 dan 10 gacha) foydalanish mumkin. Ayrim hollarda (masalan, “Dastur ijrosining normativ-huquqiy ta’minoti” ko‘rsatkichi) faqat bitta ko‘rsatkich — buyruqning mavjudligi: bor / yo‘q bo‘lishi yetarli. Aksariyat hollarda esa qaysi ma’lumotlar o‘zgarishlarni aks ettirishini o‘ylab ko‘rish zarur. Masalan, “Ta’lim sifati” ko‘rsatkichi ushbu tushunchaning ko‘plab ta’riflarini nazarda tutadi, shuning uchun aynan ushbu tashkilotda bilim sifati qanday kuzatilishini belgilab olish lozim: oraliq va yakuniy attestatsiya natijalari monitoringi, olimpiadalardagi g‘alabalar dinamikasi yoki boshqa usullar orqali.

Tanlangan indikatorlarga qarab, zarur ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish usullari ham belgilanadi: bu tashkilot ixtiyorida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning (masalan, fanlar bo‘yicha baholarning) statistik tahlili, so‘rovnomalar, ekspertizaning turli shakllari va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Tashkiliy bo‘lim

Ish usullari, shakllari va texnologiyalarining tanlanishi asoslab beriladi. Tashkiliy bo‘lim dasturni amalga oshirish jarayonini tashkil etishning umumiy doirasini, shuningdek, ta’limiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini belgilaydi, dasturni boshqarish tuzilmasini hamda pedagogik jamoa a’zolari o‘rtasida mas’uliyat taqsimotini aniqlashtiradi. Bu o‘rinda direktor uchun taqsimlangan yetakchilik (shared leadership) texnologiyasini qo‘llash muhimdir. Rejani rasmiylashtirish odatda har bir maktabda o‘zining an’anaviy va qulay qolipi bo‘yicha amalga oshirilishi sababli, ushbu bo‘limda reja qolipi keltirilmaydi.

Biroq, direktorning doimiy nazoratida bo‘lishi kerak bo‘lgan eng asosiy narsa bu o‘quvchilar ta’lim natijalarining ijobiy dinamikasidir!

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, uning mazmuni qanchalik puxta ishlab chiqilgani va hujjat sifatida qay darajada sifatli rasmiylashtirilganiga bog‘liq. Maktab jamoasi tomonidan tayyorlangan ushbu hujjat javonda yoki shkafda saqlanmasligi kerak. Uning joyi ish stolida, o‘qituvchilar xonasidagi stendda, maktab saytida bo‘lishi lozim. Bu tez-tez murojaat qilinadigan, rejalar va harakatlar solishtiriladigan hamda dasturni amalga oshirish jarayonida tuzatishlar kiritib borilishi mumkin bo‘lgan amaliy faoliyat uchun yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.